BIRLAMCHI ZAHM. UNING TERIDA UZGARISHLARI

Menchikov Azamat Ravshsanovich

Olmalik Abu Ali ibn sino nomidagi jamoat salomatligi tehnikumi.Farmakologiya,fiziologiya va laborotoriya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi maqolamizda zahm kasalligi, birlamchi zaxm va uning belgari, zahm kasalligining umumiy turlari haqida malumot berildi.

Kalit so'zlar: sifilis, venerik, tug'ma zahm, birlamchi zahm,

Zahm yoki **sifilis** — barcha a'zo va sistemalarning zararlanishi bilan kechadigan surunkali tanosil (venerik) kasalligi. Zahm qadimdan ma'lum. Uning yer yuzida paydo bo'lishi va tarqalishi haqida turli fikr va nazariyalar mavjud. Ko'p olimlar fikriga ko'ra, Xristofor Kolumbning zahm bilan kasallangan matroslari(Shoraximov Sh 303-DI) Ispaniyada zaxm tarqalishiga sabab bo'lishgan..1496-yilda epidemiya boshlanib, Italiya, Fransiya, Shveysariya, Germaniya, keyin Avstriya, Vengriya va Polshaga tarqalgan. Ayrim olimlar Yevropa, Osiyo va Yaqin Sharqda qadim zamonlarda ham mavjud bo'lgan degan fikrdalar. O'tmishning buyuk olimlari Galen, Gippokrat, Abu Ali ibn Sino va boshqalarningning asarlarida yozilgan kasallik belgilari (yara, afta, kondiloma va boshqalar) aynan klinikasini eslatadi. Zahm XVI boshlarida deyarli butun dunyoda paydo bo'lgan. Zahmni oqish treponema (spiroxetalar) qo'zg'atadi (bu mikroorganizm anilin bo'yog'i bilan yomon bo'yalganligi uchun oqish deyiladi). U bemor qonida, teridagi yarada, limfa tugunlari, orqa miya suyuqligida, so'lagida, nerv to'qimalari va hamma a'zolarida, hatto zaxm bilan og'rigan ayol sutida va erkak shahvatida ham bo'ladi. Oqish treponema organizmdan tashqarida quritilganda o'ladi, lekin nam muhitda (masalan, shahvat, so'lakda, qin shilimshigida) uzoq yashaydi. Zahm yoki sifilis – tanosil kasalliklarining klassik turi bo'lib, qo'zg'atuvchisi oqish treponemadir va bu qo'zg'atuvchi jinsiy a'zolardan tashqari boshqa organlarni ham zararlashi mumkin. Zahm jinsiy aloqa yo'li orqali yuqadi. Kasallik turli tuman klinik simptomlar yuzaga chiqishi va sekin-asta rivojlanishi bilan ajralib turadi.

Zahm kasalligi davolanmasa, ichki a'zolar va nerv tizimidagi jiddiy o'zgarishlarga olib keladi. So'ngi yillar davomida dunyo bo'yicha sifilis kasalligi bilan zararlanish 5 barobar ortdi. Ushbu kasallik quyidagi yo'llar orqali yuqishi mumkin:

Jinsiy aloqa yo'li (95 %) – kasallangan inson bilan jinsiy aloqaga kirishganda;

Maishiy yo'l bilan zahm kasalligi yuqishi kam holatlarda kuzatiladi (buning sababi bakteriya tashqi muhit omillariga chidamsiz);

Homilaga yuqishi – kasallangan onadan bolaga tug'ruq vaqtida jinsiy yo'llar orqali yuqishi, chaqaloqlarga esa ona sutidan o'tishi mumkin;

Qon quyish orqali (hozirgi kunda deyarli uchramaydi).

Zahm bilan kasallangan insonlar bilan kontaktga kirishilganda faqatgina 20 foiz odamlar zahm bilan zararlanmaydilar. Buning sababi zararlangan biomaterialda treponemaning yetarlicha bo'lmasligi, mikrojarohatlar yuzasining kichikligi (kirish darvozasi kichik). Bundan tashqari, sifili qo'zg'atuvchisi yuqmaydigan insonlar ham bor, ular organizmida maxsus oqsillar treponemalarni lizisga uchratadi.

Agar bakteriyalar miqdori yetarlicha bo'lsa va jinsiy a'zolar shilliq qavatlarida jarohat bo'lsa, infeksiya kirgan joyda toshma va eroziyalar paydo bo'ladi.

Zahm kasalligi belgilari

Qo‘zg‘atuvchi organizmga tushgach gematogen va limfogen yo‘l orqali organizmga tarqaladi. Inkubatsion davr 1 haftadan 4 oygacha bo‘lishi mumkin. Muhim: ko‘pincha sifilis kasalligining ilk belgilari zararlangandan 21 kun o‘tib yuzaga chiqadi. Bu kunlar ichida bemorda hech qanday simptomlar yuzaga chiqmaydi, bemorda hech qanday shikoyatlar bo‘lmaydi, ammo uning qonida infeksiya bo‘ladi va bu yuqishi ham mumkin. Zahm kasalligi belgilari turli tuman bo‘lib, kasallik kechish davriga bog‘liq. Ko‘pincha kasallik tipik kechadi va shifokorlar kasallikni tashxislashda qiyinchiliklarga uchramaydilar.

Birlamchi zahm klinik belgilari

Treponema kirgan sohada “shankir” – dog‘ paydo bo‘ladi va keyinchalik bu dog‘ papula va eroziyaga aylanadi;
Yaralar shilliq qavatda aniq chegaraga ega, to‘q qizil rangda va tubi zich bo‘ladi;
Shankr – bir necha millimetr bo‘lishi va butun jinsiy a’zolarga tarqalishi mumkin;
Yaralar hosil bo‘lishi og‘riq hissini chaqirmaydi;
Agar shankr og‘iz atrofida paydo bo‘lsa – yara, chuqurcha va og‘riq paydo bo‘ladi;
Anal teshigi atrofida paydo bo‘lgan shankr esa yoriqli yara ko‘rinishida bo‘ladi va ich kelgan vaqtda kuchli og‘riqqa sabab bo‘ladi;
Shankr paydo bo‘lgan sohada mahalliy limfa tugunlari kattalashadi, palpatsiyada esa og‘riqsiz bo‘ladi.

Ikkilamchi zahm belgilari

Birlamchi zahm davolanmasa ikkinchi bosqich – 60-90 kundan so‘ng ikkilamchi zahm rivojlanadi. Bunda quyidagi belgilar yuzaga chiqadi:
Terida toshma (eritema, papula, pustula ko‘rinishida);
Tana harorati oshmaydi, bemor o‘zini yaxshi his qiladi;
Toshmalar rangi xiralashadi, o‘zining yorqin ko‘rinishini yo‘qotadi;
Teridagi toshmalar bir biridan uzoqda joylashadi;
Bir vaqtning o‘zida turli xil ko‘rinishdagi toshmalar yuzaga chiqishi ham mumkin;
Soch to‘kilishi mumkin;
Ichki a’zolar faoliyatida muammolar kelib chiqishi mumkin.

Uchlamchi zahm klinik belgilari

Kasallikning bu bosqichi 3-5 yil ichida rivojlanadi va 10 yil davom etishi mumkin. Klinik belgilar quyidagicha namoyon:
Terida bo‘rtiqchalar paydo bo‘ladi;
Terida chuqur joylashib olgan tugunchalar (gumma);
Bo‘rtiqchalar yorib ko‘rilganda ichidan quyuq suyuqlik chiqadi, yara va chandiq paydo bo‘ladi;
Ichki a’zolar zararlanadi (qon tomirlar, suyaklar, miya, yurak, jigar, buyrak);

Tug‘ma zahm belgilari

Zahm qo‘zg‘atuvchisi bolaga kasallangan onadan tug‘ruq vaqtida jinsiy yo‘llar shilliq qavatidan yuqishi yoki homiladorlik vaqtida yuqishi mumkin. Ko‘pincha sifilis homiladorlikning to‘xtashi (tabiiy abort), homilaning ona qornida o‘limiga sabab bo‘ladi. Agar kasallangan homila tug‘ruqdan keyin yashab qolsa, 6 oy ichida nobud bo‘lish ehtimoli bor. Bunga sabab, oqish treponema ajratadigan kuchli toksinlardir.

Yashirin zahm belgilari

Yashirin zahm tashxisi — kasallik belgilari yuzaga chiqmaganda, ammo tekshiruv uchun olingan biomaterialda qo‘zg‘atuvchi aniqlansa qo‘yiladi.

Visseral zahm

Bu kasallik bakteriyalarning ichki a’zolarni zararlashi natijasida kelib chiqadi, masalan jigar, yurak, oshqozon, aorta, qon tomirlar, bezlar, o‘pka.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://med360.uz/kasalliklar/sifilis-zaxm/
2. https://avitsenna.uz/zahm-yoxud-sifilis-xavfli-kasallikmi/
3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Zaxm